

**ARAB TILSHUNOSLIGI TARIXIDA O'ZAKDOSH SO'ZLAR:
SHAKLLANISH, RIVOJLANISH VA NAZARIY ASOSLAR****Erkinova Amina***Yangi Asr universitetining Lingvistika Arab tili 1 kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola arab tilshunosligi tarixida o'zakdosh so'zlar ya'ni, ishtiyoq nazariyasining qanday shakllanib, rivojlanib kelganini ilmiy-tanqidiy nuqtai nazardan kuzatishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida arab grammatika maktablarining morfologik so'z yasalishiga oid qarashlari, klassik va zamonaviy olimlarning nazariy merosini o'rganish hamda ishtiyoq tizimining tuzilishi xususiyatlarini tavsiflab berishga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, arab tilida uch undoshli o'zak tizimi leksik so'z yasalishining son-sanoqsiz imkoniyatlarini yaratib, nafaqat klassik, balki zamonaviy arab tilshunosligining ham bosh metodologik tayanchi bo'lib kelgan.*

Kalit so'zlar: *ishtiyoq, o'zakdosh so'zlar, arab morfologiyasi, uch harfli o'zak, vazn tizimi, Basra va Kufa maktablari, leksik derivatsiya.*

KIRISH

Arab tili o'zining morfologik qurilishi jihatidan dunyodagi eng serqirra tillardan biri sifatida tan olinadi. Bu tilni tilshunoslar uchun ayniqsa qiziqarli qiluvchi asosiy omil hisoblanmish undosh tovushlardan tashkil topgan o'zaklarga asoslanib, ko'plab so'zlarni muntazam qoliplar yordamida hosil qilish imkonidir. Mazkur hodisa arab tilshunoslik ilmidan ishtiyoq deb nomlanadi.^[1]

Ishtiyoq atamasi arabcha Ishtiyoq so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi "ildizdan chiqarish", "bir narsadan ajratib olish" demakdir. Tilshunoslikda bu atama bitta asosiy o'zakdan bir nechta yangi so'z shakllarini yasash jarayonini ifodalaydi. Arab tiliga xos bo'lgan bu morfologik xususiyat til leksikasining barqaror ichki mantiqqa ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, ushbu hodisaning ilmiy jihatdan o'rganilishi VII asrdayoq Qur'on matnini to'g'ri talqin qilish zaruriyatidan boshlangan va keyinchalik mustaqil morfologik nazariyaga aylanib, arab tilshunosligi ilmining muhim sohasiga kirgan. Maqola maqsadi shu nazariyaning tarixiy rivojlanishini, asosiy nazariy muammolarini va zamonaviy tadqiqotlardagi aksini keng ko'lamda tahlil qilishdan iborat. Mavzuning dolzarbligi shundan kelib chiqadiki, o'zakdosh so'zlarni tadqiq qilish nafaqat arab tili grammatikasi, balki umumiy tilshunoslik nazariyasi, qiyosiy semitologiya va hozirgi hisoblash tilshunosligi uchun ham amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi. Arab tili NLP ya'ni, tabiiy tilni qayta ishlash

sohasidagi tezkor rivojlanish ishtiyoq qoidalarini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo qilmoqda.^[2]

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, tarixiy-qiyosiy metod arab grammatika maktablarining ishtiyoqqa oid qarashlarini davr ketma-ketligida solishtirish imkonini berdi. Tavsifiy metod esa ishtiyoq turlarini va ularning morfologik xususiyatlarini aniq tushuntirib berish maqsadida qo'llanildi. Manbalar tanlashda qat'iy akademik mezonlarga rioya qilindi ya'ni, klassik arab tilshunosligi asarlari, xalqaro nashriyotlar tomonidan chop etilgan zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari va O'zbekistonda foydalanish uchun ochiq bo'lgan akademik manbalar asosiy tayanch sifatida qabul qilindi. Morfologik misollar tahlilida deduktiv yondashuv hisoblanmish umumiy qoidadan xususiy misolga o'tish usulidan foydalanildi. Bu yondashuv arab o'zaklari tizimining qonuniyatlarini aniq misollarda ko'rsatib berish uchun eng maqbul usul hisoblanadi.

NATIJALAR

Arab klassik tilshunosligida ishtiyoqning uch turi ajratib ko'rsatilgan.

- Birinchisi - ishtiyoq as-sag'ir (kichik ishtiyoq) bunda bir xil undosh harflarni saqlab, faqat unli va qo'shimchalarni o'zgartirish orqali yangi so'z yasashdir. Bu eng ko'p ishlatiladigan va tilshunoslar tomonidan eng tartibli deb topilgan tur hisoblanadi.^[3]

- Ikkinchisi - ishtiyoq al-kabir (katta ishtiyoq) - Ibn Jinniy tomonidan batafsil ishlab chiqilgan bo'lib, undosh harflarning tartibini o'zgartirib, ikki o'zak orasidagi semantik yaqinlikni aniqlashga urinishni nazarda tutadi. Misol sifatida ko'rishimiz mumkinki, j-b-r va b-r-j o'zaklari orasidagi munosabatni o'rganish katta ishtiyoqning tipik namunasidir.

- Uchinchisi - ishtiyoq al-akbar - tovush va ma'no o'rtasidagi tabiiy bog'liqliklarni izlashga asoslanadi; bu yo'nalish fonosemantika sohasiga yaqin turadi va hozirgi tilshunoslikda ko'proq munozarali deb baholanadi.

Misollar bilan izohlash uchun k-t-b o'zagiga murojaat qilish kifoya: ushbu uch undoshdan kataba (u yozdi), kitab (kitob), kaatib (yozuvchi), maktab (maktab), maktub (xat; yozilgan), kitaba (yozuv san'ati) kabi so'zlar hosil bo'ladi. Shu tarzda ayta olamizki arab tilshunosligida bitta o'zak orqali o'nlab turli ma'noli so'zlarni hosil qilishimiz mumkin.

Arab morfologiyasiga mantiqiy va sistematik yondashuv tarafdorlari sifatida Basra maktabi vakillari ko'rishimiz mumkin. Ularning fikricha, til hodisalari o'zaro o'xshashlik - qiyos (qiyas) tamoyiliga bo'ysunishi lozim. Shu tufayli Basra tilshunoslari ishtiyoqni ham qat'iy qoidalar asosida tushuntirib, o'zak hosilalarining har birini mavjud grammatik me'yorlarga moslashtirganlar. Maktabning yirik namoyandasi Sibavayh (vaf. 796) o'zining «al-Kitab» asarida morfologik derivatsiyani vazn tizimi orqali tavsiflab, keyingi barcha arab morfologik tadqiqotlari uchun asos yaratdi.^[5]

Kufa maktabi esa til hodisalarini qabila lahjalaridan bevosita yig'ilgan namunalar - sam'a (eshitilganlar) asosida izohlashni ma'qul ko'rgan. Kufiyalar arab qabilalarida uchraydigan noodatiy so'z shakllarini ham noto'g'ri deb rad etmaganlar, shu bois ishtiqoqda qat'iy qiyosdan ko'ra kuzatuv va ro'yxatga olishni ustuvor bilganlar. Maktab namoyondalari al-Kisoiy va al-Farra' bu yondashuvning asosiy vakillari sifatida taniladi.

Ikki maktab o'rtasidagi bu metodologik farq arab tilshunosligi tarixida «qiyos» va «sam'a» muammosi sifatida mashhur bo'lgan ilmiy munozaraga asos soldi. Ibn al-Anbariy o'z asarida 121 ta masalada ikkala maktabning qarshiliklari xulosalab berilgan. Bu asar hozirgi kunda o'rta asr arab ilmiy bahs madaniyatining yorqin namunasi sifatida ko'riladi.

X–XI asrlarni arab morfologiyasi tarixida alohida o'rin tutadi denb bemalol ayta olamiz. Bu davrda Mosul shaharlik hisoblanmish Ibn Jinniy ishtiqoq nazariyasini ilk bor to'liq va izchil tizimga keltirdi. Uning «al-Xosais» asari arab tilining xususiyatlarini atroflicha tahlil qilish jihatidan hamon dolzarb manba hisoblanadi. Ibn Jinniy ishtiqoqni uch turga bo'lib, har birini aniq misollar bilan asoslab berdi va shu bilan birga, u arabcha o'zaklarning semantik rivojlanishini harflar tartibi bilan bog'lab tushuntirdi. Eronlik Ibn Faris esa o'zining «Maqayis al-Lug'a» asarida boshqacha yo'l tutdi: u har bir arab o'zagining birlamchi ma'no maydonini aniqlashga va shu o'zaktan hosil bo'lgan barcha so'zlarni shu birlamchi ma'no atrofida birlashtirgan holda tahlil qilishga urindi. Bu yondashuv ishtiqoq nazariyasining semantik o'lchamini yanada kuchaytirdi va leksikografiya uchun qulay tasnif tizimi yaratdi.^[7]

Arab morfologiyasida al-mizan as-sarfi - morfologik mezon tizimi - o'zaktosh so'zlarni tahlil qilishning asosiy vositasi sifatida shakllangan. Bu tizimda har qanday arabcha so'z fa'ala qolipi asosida tavsiflanadi: birinchi undoshning o'rniga fa, ikkinchisiga a'yn, uchinchisiga lam qo'yiladi. Masalan, darasa so'zi fa'ala qolipiga, mudarris esa mufa'il qolipiga to'g'ri keladi.

Uch harfli o'zaklar arab leksikasining asosiy tarkibiy qismini tashkil qiladi. To'rt harfli o'zaklar ham mavjud, biroq ular odatda chet tillardan o'zlashtirilgan so'zlarni mahalliyashtirish jarayonida paydo bo'lgan. Masalan, t-r-j-m o'zagidan kelib chiqqan tarjama (tarjima) va tarjuman (tarjimon) so'zlari bu guruhga kiradi. Grammatikchilar o'zak harflarini usul (asosiy), qo'shimcha harflarni esa ziyada (qo'shimcha) deb atab, ularni bir-biridan qat'iy ajratganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab tilshunosligi G'arb universitetlari bilan yaqin aloqaga kirdi. Bu jarayon ishtiqoq nazariyasini strukturalistik va keyinchalik generativ tilshunoslik metodlari asosida qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Qohiradagi Arab tili akademiyasi zamonaviy atamalar yaratishda ishtiqoqdan sistematik ravishda foydalana boshladi: texnik va ilmiy tushunchalar uchun qadimiy o'zaklardan yangi so'zlar yasaldi. Masalan, hatif (telefon, lug'aviy ma'nosi - "chaqiruvchi ovoz") va misyah (skanerlash) kabi atamalar ana shu yo'l bilan boyitilgan. Misrlik tilshunos Tammam Hassan o'zining «al-Lug'a

al-Arabiyya: Ma'naha va Mabnaha» asarida arab morfologiyasini zamonaviy funksional tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilib, ishtiyoq qoidalarining semantik-funksional asoslarini yangicha talqin qildi. Uning yondashuvi keyingi arab tilshunoslari avlodi uchun metodologik mezon bo'lib xizmat qildi. Hisoblash tilshunosligi sohasida arab morfoloik tahlili - Arabic morphological analysis - amaliy muammo sifatida katta e'tibor qozondi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, arab tilida ishtiyoq hodisasi faqat morfologik texnika emas, balki tilning ichki mantiqini va dunyoni idrok etish tarzini aks ettiruvchi chuqur nazariy tizim ekanligi namoyon bo'ldi. Uch undoshli o'zak atrofida so'zlarning guruhlanishi arab leksikasiga mustaqil bir tartib beradi: yangi so'z yasash uchun ko'p hollarda o'z tilining imkoniyatlariga murojaat qilish kifoya. Shuningdek, Basra va Kufa maktablari o'rtasidagi munozara ham shu nuqtadan ko'rib chiqilganda chuqurroq ahamiyat kasb etadi. Qiyos tarafdorlari tilning qonuniyatga bo'ysunishini, sam'a tarafdorlari esa tilning hayotiy namoyon bo'lishining murakkabligini ta'kidlaganlar. Bu ikki yondashuv hozirgi tilshunoslik fani uchun ham dolzarbdir. Bugungi kunda, zamonaviy NLP tadqiqotlari ham ishtiyoqning nazariy jihatdan chinakam tartibli ekanligini tasdiqladi ya'ni, kompyuter algoritmlari arab o'zaklarini avtomatik aniqlash va hosillarini tahlil qilishda yuqori darajadagi aniqlikka erisha olmoqda. Bu esa ibn Jinniy kabi klassik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan tizimning hozirgi kun uchun ham amaliy qiymatga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq ayrim muammolar hali to'liq hal etilganicha yo'q. Katta ishtiyoq - harflar tartibining o'zgarishi bilan semantik bog'liqlikni izlash - bugungi tilshunoslikda aksariyat hollarda spekulativ deb baholanadi va bu yo'nalish metodologik jihatdan kuchli tanqid ostida qolmoqda.

XULOSA

Arab tilshunosligi tarixida ishtiyoq nazariyasi boshqa birorta morfologik masalaga qaraganda uzluksizroq va chuqurroq o'rganilgan. Eronlik tilshunos Sibavayhi'ning vazon tizimidan boshlab Ibn Jinniy'ning uch turli tasnifiga, undan zamonaviy Tammam Hassan va NLP tadqiqotlarigacha bo'lgan yo'l ushbu nazariyaning qanchalik tirik va o'zgaruvchan ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida ayta olamizki, arab ishtiyoq tizimi tilning ichki qonuniyatlariga asoslanib, leksikani organik tarzda boyitish imkonini beradi, hamda klassik maktablar o'rtasidagi munozaralar zamonaviy tilshunoslikdagi bahs-munozaralarni bevosita ko'zga keltirib, metodologik jihatdan hamon o'qitish ahamiyatini saqlab turibdi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar bu qadimiy nazariyaga yangi zamin bag'ishlab, uni amaliy muammolar yechimiga aylantirmoqda. Kelgusi tadqiqotlar uchun arab dialektlarida ishtiyoqning qanday ishlashi, internet va ijtimoiy tarmoq tili ta'sirida arab neologizmlarining qanday hosil bo'lishi,

hamda ishtiqoq qoidalarini xorijiy tillarni o'rganuvchilarga o'rgatishning samarali pedagogik usullarini ishlab chiqish muhim mavzular bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Versteegh, K. The Arabic Language. Edinburgh University Press, 2014. P. 12–27.
2. Habash, N., Rambow, O., Roth, R. MADA+TOKAN: A Toolkit for Arabic Tokenization, Diacritization, Morphological Disambiguation // Proceedings of the 2nd International Conference on Arabic Language Resources and Tools. Cairo: MEDAR, 2009. P. 102–109.
3. Ryding, K.C. A Reference Grammar of Modern Standard Arabic. Cambridge University Press, 2005. P. 41–55.
4. Wehr, H. A Dictionary of Modern Written Arabic. Ed. J.M. Cowan. 4th ed. Wiesbaden: Harrassowitz, 1979. P. xxvii–xl.
5. Sibavayh, Abu Bishr Amr ibn Uthman. Al-Kitab. Ed. Abd al-Salam Muhammad Harun. Cairo: al-Khanji, 1988. Vol. 2. P. 181–200.
6. Ibn al-Anbari, Kamal al-Din. Al-Insaf fi Masa'il al-Khilaf bayna al-Nahwiyyin al-Basriyyin va al-Kufiyyin. Ed. Muhammad Muhyi al-Din Abd al-Hamid. Cairo: al-Maktaba al-Tavfiqiyya, 2002. P. 7–29.
7. Ibn Faris, Ahmad. Maqayis al-Lug'a. Ed. Abd al-Salam Muhammad Harun. Cairo: Dar al-Fikr, 1979. Vol. 1. P. 3–18.